


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**  
**TABIY FANLAR FAKULTETI KIMYO BO‘LIMI**

## **REFERAT**

# **Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida til go'zalligi masalasi**



**Bajardi: II bosqich magistranti M.A.Tagirova**

**Tekshirdi: dots. B.M.Muhiddinova**

**Samarqand - 2015**

# **R E J A :**

## **I. KIRISH.**

## **II. ASOSIY QISM.**

**2.1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi**

**2.2. Alisher Navoiy so'zning sehri va tilning jozibasi haqida**

**2.3. Buyuk siymoning "Mahbub ul-qulub" asari haqida**

**2.4. "Mahbub ul-qulub" asarining qisqacha bayoni**

**2.5. Asarda qo'llanilgan sintaktik figuralar**

## **III. XULOSA**

## **IV. ADABIYOTLAR**

*“Til muncha sharaf bila nutqning olatidir  
va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo’lsa,  
boshning ofatidir...”*

*(A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” dan)*

## **I. Kirish.**

### **Nutq odobi va nutq madaniyati fani haqida**

Inson butun umri davomida o’z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go’zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo’lishiga intiladi. Zero, go’zal va ta’sirchan so’zlay bilish ham san’at. Lekin bu san’atdan bebahra insonlar ham hayotimizda uchrab turadi. Nutq madaniyati fani o’zbek tilshunosligining o’ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to’g’ri va chiroyli nutq tuzish yo’llarini o’rgatadi. U til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo’lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati fan sifatida o’z tekshirish ob’ekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til normalari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir. Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir.

«Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo’lmog’i kerak»

Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiylikini, taraqqiy etib borishi undagi ba’zi unsurlarning eskirishi, ular o’rnida yangi normativ unsurlarning paydo bo’lishini ko’zatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, b1’zi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi. Balki o’zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini ko’zatib boradi, ob’ektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.

Hozirgi o’zbek adabiy tilining to’liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til diyorumiz vakillari uchun umumiy til sifatida shakllandi.

Nutq madaniyati haqidagi ta’limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo’lsa ham, unga qadar qadimgi Misr, Ossuriya, Bobil (Vavilon) va Hindiston mamlakatlarida paydo bo’lganligi notiqlik san’ati tajribasidan ma’lum. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni

san`at darajasiga ko'targan edi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro'- e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notqlik san`ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Bu ikki san`atni mukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar. Umuman etuk inson bo'lish uchun, albatta, notqlik san`atini egallash shart qilib qo'yilgan. Grek notqlari Demosfen, Aristotel va Rim notqlari Siseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotlaribunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notqlik san`atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Sitseronning "Notqlik haqida", "Notiq", "Brut" asalari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari ham qadimgi Rim va Yunonistonda madaniy nutq, notqlik nazariyasi rivojlanganligini ko'rsatuvchi bir omildir.

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan "Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-7-boblari so'z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlar orqali o'quvchini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi kamtar bo'lishi, o'zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, maxmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emas... "Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi..."

Ulug' shoir Yusuf Xos hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim") asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida: "Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur" degan edi. qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,

Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz.

### ***Mazmuni:***

So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so'z bilan ech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan etkazishdan iborat. Shunday ekan,

nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, xovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII asrlar) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoo'masdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

Uquv so'zla so'zni eva so'zlama,

So'zing qizla, kedin, boshing kizlama.

***Mazmuni:***

So'zni uqib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalik, qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamachilikni qoralash va boshqalar haqida gapboradi.

## II. ASOSIY QISM

### 2.1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qilolgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik **“ko'p va xo'b”** (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini **“Xitoydan to Xuroson”** gacha yoyilgan turkiy “qavm” (el, urug')larning shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, **“yakqalam”** qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotda yashab o'tdi. Qadim zamonlardan, shu jumladan, Navoiy yashagan davrda ham Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo'lib, bir taxt egasi ixtiyorida kelgan, aholisining asosiy qismini turkiy xalqlar tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy tili **“Andijon shevasi bilan rost”** ligini aytadi. Binobarin, biz - o'zbeklar turkning eng qadim bo'g'inini tashkil etgan va bugun o'zbek millati bo'lib shakllangan xalq buyuk Navoiyning bevosita vorislaridirmiz. Navoiydek jahoniy zotga avlodlik va vorislik hissi har bir o'zbekning qalbini g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan to'ldiradi.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug'ildi. Zamondoshlari uni bizga “Nizomiddin Mir Alisher” deb tanishtiradilar. “Nizomiddin” – din, diyonat nizomi, degandir. Ko'pincha, donishmand mansab egalari nisbatan aytilgan. **“Mir”** – amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni “G'iyosiddin Kichkina” ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlardan, onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) edi.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Olimu fozillar davrasida bo'ldi. 3-4 yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvarning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. 5 yoshida esa uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi.

Alisherlar xonadoni 1451-yilda Hirotda qaytadi. Ko'p o'tmay, taxtga Abulqosim Bobur Mirzo o'tiradi. Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher esa, o'qishini davom ettiradi. Bo'lajak shoir Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo'ston” asarlarini sevib o'qiydi. Ayniqsa, Farididdin Attorning qushlar tilidan hikoya qilingan “Mantiq ut-tayr” asari Alisherning o'y –xayolini tamom egalab oladi. U odamlardan yotsiraydigan, xilvatni

yoqtiradigan bo'lib qoladi. Bu holdan uning ota-onasi tashvishga tushadilar va kitobni yashiradilar. Lekin bu foydasiz bo'lib chiqadi. Kitob Alisherga tamom yod bo'lgan edi. “Mantiq ut-tayr” xayoli Alisherga bir umr hamroh bo'ldi. Umrining so'ngida esa, “Lison ut-tayr” nomi bilan unga javob yozdi. Bo'lajak mutafakkirining sevib o'qigan shoirlari yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy edi.

1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kirdi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhada yashadi. Ikki maktabdosh do'st – Husayn va Alisher yana birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va ilm egallash yillari bo'ldi. She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7 – 8 yoshlarida she'r yoza boshladi. O'zbekch she'rlariga “Navoiy”, forsha she'rlariga “Foniy” taxallusini qo'ydi. 15 yoshlarida she'rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdi.

1457- yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etdi. Uning o'rnini Abusaid Mirzo egalladi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga sho'ng'ib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi. 1464-yilda Hitotga qaytib kelgan shoir hayotida noxushliklar boshlandi. Abusaid Mirzo taxtga da'vogar Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini ta'qib ostiga oladi. Alisherning ota mulkini musodira qiladi, tog'alari Kobuliy va G'aribiylarni qatl ettiradi.

Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Uning bu yerga kelish sababini turlicha ko'rsatadilar. Tarixchi, Navoiy haqidagi “Makorim ul-axloq”-“Yaxshi xulqlar” nomli maxsus asarning muallifi Xondamir uni o'qish uchun keldi, deydi. Zahiriddin Bobur esa Abusaid surgun qildi, deb ma'lumot beradi. Har ikkalasi uchun ham asos bor, albatta.

Nima bo'lganda ham, Samarqand uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Chunki Samarqand sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan shahar edi. Go'ri Amir, muazzam Ko'ksaroy, Ulug'bek rasadxonasi kabi o'nlab tarixiy obidalar, jome' masjidlar, madrasalar, qanchadan-qancha olimu fozillar, shaharning tabiiy go'zalligi uning xotirasida saqlanib qoldi. Keyinchalik bu shaharni o'z asarlarida “firdavsmonand” (jannatmisol) deb ta'rif etdi.

Navoiy shu yillari shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. 1465-1466-yillarda uning muxlislari she'rlarini to'plab, “Devon” tuzdilar. Bu kitob bugun “Ilk devon” nomi bilan mashhurdir. 1469-yilda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro chiqdi va Samarqandga xat yo'llab , maktabdosh dosti Alisher Navoiyni o'z yoniga chaqirib oladi. Davlat ishlariga jalb etadi, muhrdor qilib tayinlaydi. Shu tariqa, buyuk shoir Husayn Boyqaro saroyida 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo'lib ishladi. 1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko'rdi. Uni,

qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayaniladi. Buyuk shoir “amri kabir” (ulug’ amir), “amirul muqarrab” (podishohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo’ldi. Uning vazirlik yillari hirotida obodonlik ishlari avj olgan, madaniyat gullab yashnagan davr bo’ldi. Ulug’ amir o’zi bosh bo’lib suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozalattirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta’mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan-qancha madrasalar, xonaqolar soldirdi. Uning, ayniqsa, Husayn Boyqaro hokimiyatini mustahkamlash, yurt osoyishtaligini ta’minlash, temuriyzodalar toj-u taxt uchun olib borayotgan kurashlarning oldini olish borasidagi xizmatlari katta bo’ldi. Aql-u zakovati, donishmandligi, el-yurt orasidagi yuksak mavqei bilan Husayn Boyqaro va o’g’illari-shahzodalar o’rtasidagi ko’plab nizo va janjalarni yarashga aylantirib, ota va bolalarning bir-birlariga mehr-muhabbatlarini tiklashga muvaffaq bo’ldi. Qanchadan-qancha g’alayonlarni tinchitdi. U jangda jasur, she’rda iste’dodli, do’stlikda sadoqatli bo’lgan. Sulton Husayn Boyqaroga qattiq ishonar edi. Alisher Navoiy she’rini, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham ijod qilishni to’xtatmadi. 1472 – 1476- yillarda “Bado’yeul bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”), 1476 – 1483-yillarda “Navodirun nihoya” (“Nihoyasiz nodirliklar”) nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483 – yilda turkiy tilda birinchi bo’lib Nizomiy Gankaviydan keyin hech qaysi shoir yozmagan “Xamsa” yozishga kirishdi va juda qisqa muddat – ikki yilda besh yirik dostonidan iborat “Xamsa” ni yozib tugatdi. Bular “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dir. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo’r shodliklar bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy “Xamsa” siga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirni o’zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko’chalarini aylantirdi.

Alisherning shoh qoshida oshib borayotgan mavqe’- e’tibori saroydagi Majididdin boshliq bir guruh el haqidan xazar qilmaydigan amaldorlarni tashvishga solib qo’ydi. Ular shohning adolatlatalab amirini ko’zdan uzoqroqqa jo’natish yo’lini izlay boshladilar va bunga muvaffaq bo’ladilar. Shoir 1487-1488-yillarda Astrabotga hokim tayinlanib, poytaxtdan uzoqlashtirildi .

1480-1490-yillar Navoiy uchun badiiy ijodda samarali yillar bo’ldi. Shoir “Xamsa”dan keyin bir qator nasriy asarlar yaratdi. 1488-yilda “Tarixi mulki Ajam” asarini yozdi. Shu yillar Navoiyning yaqin do’stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher(1489), Abdurahmon Jomiy(1492), Pahlavon Muhammad(1493) ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag’ishlab “Holati Sayyid Hasan Ardasher”, Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holati Pahlavon Muhammad” asarlarini yozadi. Bu asarlar nasriy bo’lib, shoirning ulug’ zamondoshlari haqidagi memuar-xotiralaridan tashkil topgan edi.



1491-yilda shoir muammo janriga bag'ishlangan "Risoi muammo" asarini yozdi. Muammoni tuzish va yechish yo'llarini ko'rsatdi. Navoiy zamonasida muammo, asosan, fors tilida yozilardi. Navoiy o'zbek tilida muammo yozgan ilk o'zbek shoirlaridan bo'ladi. Shoirning 52 o'zbekcha, 500 forscha muammosi bor.

Navoiyning 1490-yillardagi eng katta xizmatlaridan biri "Xazoyin ul-maoniy"ni tuzishi bo'ldi. To'rt devondan iborat bo'lgan bu ulkan she'riy to'plam shoirning turkiy tilda yozgan deyarli barcha lirik she'rlarini qamrab olgan edi.

## 2.2. Alisher Navoiy so'zning sehri va tilning jozibasi haqida

Navoiy o'z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. "Mahbub ul-qulub" asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritisa, "Muhokamat ul lug'atayn" asarida o'zbek adabiy tilining boyligini e'tirof etdi. Nainki e'tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidladi. So'zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo'lmas ekan, tilning, so'zning cheksiz imkoniyatlari ruyobga chiqib chiqmay qolaveradi. "Majolisun-nafois" da so'zning voizlari hayotida tutgan o'rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. "Nazmul javohir" asarida esa so'z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o'tiladi. Tarixdan ma'lumki, Navoiyning o'zi ham mohir notiq bo'lgan va shirin kalomi, o'tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o'z asarlarida ham xaloyiqqa naf'i tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin-zabon so'zlar so'zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo'llarini o'rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan.

Navoiy tilni o'sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o'zaro aloqada bo'ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug'ma ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari "Mahbub ul-qulub" dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so'zlovchi dilidagi fikrni to'g'ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

"Saodatbaxsh ruh zuloliga matla' ham til. Tilga iqtidorlig'-hakimi xiradmand, so'zga ixtiyorsiz-layni najand. Tilki fasih va dilnazir bo'lgay, xubroq bo'lgay agar ko'ngil bila bir bo'lgay" deb yozadi Navoiy.

**Ma'nosi:** "Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tilga kuchi yetadigan kishi aql

podshosidir: soʻzga ahamiyat bermaydigan kishi laʼnatlangan, pastdir. Til goʻzal va dillarni olovlantiruvchi boʻlishi bilan birga, soʻzlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq boʻladi”.

Navoiy til deganda nutqni koʻzda tutgan. Til, yaʼni soʻz oʻzining koʻp yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qoʻpolligi, maqsadga muvofiq boʻlmasligi soʻzlovchiga zarur yetkazishini alohida taʼkidlab oʻtadi.



Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan soʻzlash odobi haqida, oʻylamasdan soʻzlamaslik lozimligi haqida: “Tildin azubat dilpisanndur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achigʻliqqa evruldi, zarari oni boʻldi. Chuchuk soʻz sof koʻngullarga nushdir... Soʻzni koʻngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim koʻnglungda boʻlsa, tilga surma” deydi. Buning maʼnosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom boʻladi. Chuchuk soʻzni toza koʻngullar simiradi... Soʻzni koʻngulda pishitib olmaguncha soʻzlamagin, koʻnglingda boʻlgan har qanday fikrni ham ayta berma. Nutqdan maqsad fikr anglatishdir: “Ammo soʻzlar va saboqlardin murod maʼnodur”.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shugʻullangan shoir “Mahbuboʻl-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bagʻishlaydi. Navoiyning oʻzi ham notiqlik sanʼatini oʻz davrida yuksak darajaga koʻtargan. “Tilga ixtiyorsiz-elga eʼtiborsiz” yoki “Maʼdani inson gavhari soʻz durur, gulshani odam samari soʻz durur” deb yozadi. Navoiy 24 bob “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bagʻishlangan boʻlib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisgʻa kirgan toʻlgʻay va toʻla kirgan holi boʻlgʻay”.

“Mahbubul-qulub” da “Ogʻziga kelganni demoq-nodonning ishi”, “Aytar soʻzni ayt, aytmaz soʻzdan qayt”, “Chin soʻz-moʻtabar yaxshi soʻz-muxtasar” kabi

hikmatli soʻzlar, maqollar anchagina. Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Shoir nazarida soʻz oʻlikni tiriltirish kuchiga ega:

Ham soʻz ila elga oʻlimdin najot,

Ham soʻz ila topub oʻluk tan hayot.

Baʼzan bir soʻz bilan tirik vujud, salomat inson ham jonsiz oʻlukka aylanishi mumkin. Yolgʻon soʻz ham shunday qudratga ega:

Oʻluk gar andin erur joni pok,

Valekin tirikni ham aylar haloq.

Navoiy taʼkidlashicha, shirin soʻz bilan koʻp ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Hatto “chuchuk soʻz elga izhor” etish orqali u kim boʻlmasin, “har nechakim agʻyor zurur yor” ga aylanadi.

Xalqimiz tili achchiq, inson koʻngliga ozor beruvchi kishilarga “tili zahar”, “tilidan zahar tomadi” kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma oʻzini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur boʻladi. Navoiy bu taxlit “achchiq soʻz, anfos” lik kishilardan “istigʻno” zarurligini oʻrinli taʼkidlaydi:

Har kimki achchiq boʻldi soʻzi, anfosi,

Bor suhbatidin xalqning istigʻnosi.

Soʻzlashning ham meʼyorlari bor. “Boisi gʻaflat koʻp soʻz”- koʻp gapirish ham gʻaflat, gʻofillikka sabab. Har qancha suxandon boʻlsa ham, imkon boʻlguncha soʻzni qisqa gapirish zarur. Toʻgʻri va rost soʻz mavjud. Yolgʻon va yolgʻonchilik bor. Shoir oʻgitiga soʻzlayotgan kishilarning kimligi, qandayligi uning koʻrinishi bilan emas, soʻzlanayotgan gaplaridan ayon boʻladi. Koʻngilga kelgan har bir fikrni tilga chiqaraverish beburdlikka olib keladi. Behuda, beburd va masxaraomuz soʻzlash kishining oʻziga ozor yetkazadi. Tili kesilishiga olib keladi. Soʻzni koʻngilda pishitib, mulohaza qilib, soʻng “tilga surmoq” kerak. Har bir kishining soʻzi-uning koʻnglini aks ettiradi. Shoir aytmoqchi:

Senga bor esa soʻz bilurdin mazoq,

Oʻzim sari boqma, soʻzim sari boq.

“Soʻz” deganda Navoiy nimalarni nazarda tutadi? Professor A.Hayitmetov shunday yozadi: *“Navoiy “soʻz” ni oʻz asarlarida koʻp maʼnoda ishlatadi. U “soʻz” termini ostida insoniyatning hamma maʼnaviy boyligini-alohida ijtimoiy kategoriya*

*boʻlgan tilni ham, ideologiya shakllaridan hisoblangan falsafa va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni koʻp vaqt bir-biridan farq qilmaydi”.*

Navoiy “soʻz” haqida gapirganda qoʻyidagilarni eʼtiborga oladi:

1. Soʻz-til maʼnosida.
2. Soʻz-muomala, gapirish, nutq mohiyatida.
3. Soʻz-badiiy ijodda, mazmuni shakllantiruvchi vosita tarzida.

Navoiy talqinicha, soʻzning (tilning) insoniyat hayotidagi oʻrni beqiyos. U insonning insonligini, barcha jonzotlardan yuksak ekanligini anglatuvchi unsur. Ollohning bashariyatga inʼom etgan ulugʻ neʼmati tildir:

Tengriki, insonni qilib ganji roz,

Soʻz bila hayvondin anga imtiyoz.

Tangri, insonni “ganji roz”-sirlar xazinasini qilib yaratdi. U bir moʻjiza. Odamning hayvondan “imtiyozi”-farqi “soʻz bila”-til bilan boʻldi. Agar bu baytda gap bevosita til haqida borayotgan boʻlsa, baʼzan til va soʻz alohida-alohida hodisa sifatida talqin etiladi. Shoir tilni poʻlat xanjarga qiyoslaydi. Soʻz esa, shu xanjarga bezavk beruvchi, unga qadalgan injulardir: Mana bu baytda ham shunga xos ifoda:

Soʻz bila kufr ahli musulmon boʻlib,

Soʻz bila hayvon degan inson boʻlib.

Birinchi misrada “Shirin soʻz”, “taʼsirli soʻz”, “nasihatimiz soʻz”, “yumshoq va muloyim soʻz” va xokazo-gap bilan “kufr ahli” iymonsiz, eʼtiqodsiz kishilar ham “musulmon” boʻlishi, toʻgʻri, yoʻlga kirishi taʼkidlanadi. Ikkinchi misrada esa, odamni hayvondan ajratuvchi vosita-til haqida gap boradi.

Navoiy soʻzni ajib, sehrlil va qimmatbaho gavhar sifatida eʼzozlaydi. Koʻpgina baytlarda, ayniqsa “Xamsa”, “Mahbuboʻl qulub” singari asarlarida soʻz, uning oʻrni, inson hayotidagi ahamiyati, soʻzlash madaniyati, soʻzning badiiy ijoddagi mavqie, soʻz odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. Shoir nazarida “Soʻz jahon bahrida durdona”, inson qalbining maʼdani- “Maʼdani inson guzari soʻz”, “gulshani odam samari”, “ajab guzar”, “bahru mavjvar”, “dur”, “javhari ruz”, “aytib sovumas tarona”, “olib qurimas xizona” - tunganmas xazina:

Aytib sovumas tarona sen-sen,

Olib qurumas xizona sen-sen.

### 2.3. Buyuk siymoning “Mahbub ul qulub” asari haqida

Navoiy zukko shoir, donishmand inson sifatida o'zining lirik asarlari, «Xamsa» va boshqa asarlarida, umuman faoliyati davomida asosiy e'tiborni komil inson masalasiga qaratdi. Shoir asarlarida komil inson qanday bo'lishi kerak, uning zohiriy va botiniy xususiyatlari xususida javob berishga harakat qildi. Zero, bugungi kunda ham ma'naviy yetuk kishilar, yoshlar dunyoqarashi, kamoloti haqida ko'p gapirilmogda. Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, nutq va suhbatlari, umuman faoliyatlari davomida ma'naviyat, ma'rifat, o'tmish merosimizga hurmat kabi jihatlarga e'tiborni tortmoqdalarki, bu bejiz emas. Bugungi kunda yetuk kishilarni tarbiyalashda Navoiy merosining ham, ayniqsa, «Mahbub ul qulub» asarining alohida o'rni bor.

«Mahbub ul qulub» - Navoiy umrining oxirida yozilgan nasriy asardir. U muallifning g'oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to'plagan boy tajribasi va xulosalarining yig'indisidir. Navoiy bu asarni yaratishda ko'zlagan maqsadi haqida asar muqaddimasida shunday yozadi: «... bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo'zg'ovchi dunyo buqalamunligidan zamonaning rang singari gunogunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil hayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tovor va ravishda bo'ldim va turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo'ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim... Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini surdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qaragan elga muruvvat ko'rsatdim... Maqsadim shuki, har yo'lda yurdim, olamda bo'lmish har nav` odam bilan ko'rishdim, katta- kichikning fe'lu atvorini o'rgandim, yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim, yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim...» («Mahbub ul qulub», 3-bet)

Navoiy hayotda ko'rgan, kechirgan, yaxshi va yomon kunlari, mehru jafolarni ushbu misralarda aniq bayon eta olgan:

Gahe topdim falakdin notavonlig',

Gahe ko'rdum zamondin komronlig',

Base issig'-sovug' ko'rdum zamonda,

Base achchig'-chuchuk tottim jahonda.

(«M.q.», 11-bet)

Shoir hayotining xulosasi, donishmand insonning hayot, kishilar, ularning fe'l-atvorlari haqidagi qarashlarining xulosasi sifatida «Mahbub ul qulub» yaratildi.

Asarning qadimgi qo'lyozma nusxalari kam. Ilm-fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalardan uchtasi XVI asrga, qolganlari esa XVIII-XIX asrlarga mansubdir. «Mahbub ul qulub»ning 1565-66 yillarda ko'chirilgan nusxasi Parij Milliy kutubxonasida, XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilingan mukammal bir nusxasi Sank-Peterburgda, 1595-96 yillarda ko'chirilgan nusxasi ham Sank-Peterburgda, Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. Buxoro, Istanbul, 1939 yilda Toshkentda nashr etiladi.

«Mahbub ul qulub» falsafiy, axloqiy, ta'limiy asardir. Unda Navoiy XV asrdagi ijtimoiy tabaqa va guruhlarni tasnif va ta'rif qiladi. Asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoyinoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston» asarlari kabi o'ziga xos nasihatnomadir.

#### **2.4. «Mahbub ul qulub» asarining qisqacha bayoni**

Xazrat Alisher navoiyning «Mahbub ul qulub» asari ham an'anaviy mumtoz adabiyotiga xos bo'lgan Ollohga va uning payg'ambarlariga hamd aytish bilan boshlanadi. Asarning yozilish sabablari va boislari keltiriladi:

“...bu muqaddimotdin maqsad bukim, har ko'y va ko'chada yugurubmen va olam ahlidin har nav' elga o'zumni yetkurubmen va yaxshi-yomonning af'olin bilibmen va yamonu yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va shar'din no'sh va nish ko'ksunga yetibdur va laim va karim zahm va marhamin ko'nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin bayozi ashob va davron xaylidin ba'zi ahbobki, bu hollardin xabarsiz va ko'ngullari bu xayrva sharrdin asarsizdur. ...Vahar nav' el suhbat va xususiyatiki, alarga havas bo'lg'ay, bu faqirning tajribasi alarg'a bas bo'lg'ay.

Chun bu maqolatning qulubg'a mahbublug'i ma'lumbo'ldi, anga «Mahbub ul-qulub» ot qo'yuldi...” (3-bet)

Asar uch qismga bo'linadi:

«Avvalgi qism - xaloyiq ahvoli va af'oli va aqvolining kayfiyati» - xaloyiqning ahvoli va fe'l-atvori hamda so'zlarining kayfiyati.

«Ikkinchi qism-hamida af'ol va zamima xisol xosiyatida» - yaxshi qiliqlar va yomon xislatlar xususiyati.

«Uchinchi qism - hamida natijasi va zamima xisol xosiyatida» - yaxshilikning natijasi va yomon xislatlarning oqibati.

Asarning birinchi qismi turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning tasnifi va ta`rifiga bag'ishlangan. 40 fasldan iborat. Birinchi fasl «Odil podshohlar haqida». Shoir adolatli podshohni quyosh, bahor yomg'iridek qora tuproqqa gullar ochadigan, kambag'al va bechora odamlar rohatda, zolim amaldorlar qo'rquv va, o'g'ri va qaroqchilardan xalq omonda, ayollar tinmaydi, kampirlar duoda, olimlar uni ta`riflab risolalar bitadi, shoirlar uning go'zal sifatlarini maqtab qasidalar yozadi, xonandalar uni kuylashadi.

Navoiy «zolim, johil, fosiq podshohlar to'g'risida» (4 faslda) ham mulohaza yuritadi. Adolatli shoh yorug' ko'zgu, yorug' tong bo'lsa, zolim podshoh qorong'u kecha. Nohaqqon to'kishlik unga hunar, kimki joni bor, undan qo'rqr.

«O'ldurmoq uchun jon bermoq uning shiori, elning molu joniga qasd qilmoq uning shikoridir». («M.q.», 6-bet)

Navoiy bu fasllarda, ya`ni birinchi qismda yana beklar, noyiblar, vazirlar, diyonatsiz sadrlar, maqtanchoqlar, yasovul, lashkar, qora cherik, shayxulislom, qozilar, muftilar, mudarrislar, tabiblar, kotiblar, maktab ahli, ashulachi va cholg'uchilar, qissa to'quvchilar, nasihatgo'y va va`zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, mirshablar, hunarmandlar, dehqonchilik to'g'risida, bezori va razillar, g'arib va bechoralar, shilqim gadolar, qushchi va ovchilar, uylanish va xotinlar to'g'risida, riyokor shayxlar va boshqalar haqida to'xtalib o'tadi. Navoiy «Nazm gulistonining xushovoz qushlari (Shoirlar) to'g'risida alohida hurmat bilan yozadi.» Ular bir necha guruhdir. Birinchi guruhi- ilohiy ma`rifat xazinasini javohirlari bilan boyigan va xalqning ta`rifiga ehtiyoj sezmagani... Mana shu aziz va sharofatli zotlar guruhining eng ulug' peshvosi va eng birinchisi.. hazrat Alidirlarkim... U jumladan: forsiy ibora bilan sirlar javharini tizuvchi shayx Fariduddin Attor, «Masnaviy»ni yozuvchi, yaqinlik dengizining suvchisi Mavlono Jaloliddin Rumiylardir. Bularning she`r yozishdan maqsadi ilohiy sirlarni bayon qilmoq va cheksiz ma`rifat tarqatmoqdir.

Yana bir guruh shoirlar borkim, ular haqiqat sirlariga majoz sirlarini aralashtirib, o'z fikrlarini shu uslubda ifoda etibdurlar. Chunonchi, ma`no ahli so'z pardoichisi Sa`diy Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy, Shayx Sanoiy, Shayx Avhadiddin, Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz.

Yana bulardan boshqa bir guruh bo'lib, ularning ko'pchilik asarlari majoziy ma`nodadir. Ulardan Kamol Isfaxoniy, Xoqoniy, Shirvoniy, Xoju Kirmoniy, Xoja

Kamol, Anvari, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy... («M.q.», 26-27-betlar)

«Maktab ahli to'g'risida» faslida Navoiy maktabdor domlalariga baho beradi. Ularning og'ir ishini ta'kidlaydi. «Ularning ishi odam tugul, hatto devning ham qo'lidan kelmaydi», - deydi. Shoirning hammamiz yod olgan ushbu mashhur bayti ham Shu qismda keltirilgan:

Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Asardagi «Uylanish va xotinlar haqida»gi fasl ham e'tiborlidir. Unda uylanish, oila va ayollarning o'rnini borasida gap boradi. «Yaxshi xotin - oilaning davlati va baxti. Uning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa - ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa - jon ozig'idir. Xotin yomon bo'lsa, tili achchiq, behayo, dilozor bo'lsa, oilada ko'ngilsizliklar bo'lishini ta'kidlaydi.

«Mahbub ul qulub»ning ikkinchi qismi asosan ahloqiy masalalarga bag'ishlangan. 10 bobdan iborat bu qismda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil etiladi. Shoir «Tavba», «Qanoat», «Sabr», «Ta'voze va odob», «Ishq» to'g'risida mulohazalar yuritadi.

Shoir nazarida, «Tavba-gunohkor bandaning ko'ngil ko'zgasini gunoh zangidan tozalaydi. Tavba-baxtsizlik yo'lining oxiri va to'g'rilik yo'lining boshlanishidir... qabih ishlar, sharmandalik va rasvogarchilik tufayli xijolatga qolishdan ogoh bo'lmoqdir...

Tavba-haqdan najot tilash vaqti kelganidir, bandaning nafsga tobe' bo'lishini tark etganidir.»

Qanoat masalasida ham Navoiy e'tiborli mulohazalar bayon etadi. «qanoat bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi. Qanoat bir cho'qqiki, unga chiqsang do'st-dushmanga muhtojlikdan xalos bo'lasan. Qanoat ekindir, urug'i boyluk, daraxtdir-mevasi muhtojtsizlik... Shoir ushbu bobda tavbaning ahamiyati, tamagirlikning yomon oqibatlarini haqida fikrlar bildiradi.

O'zbek mumtoz adabiyotida sabr haqida ham ko'p gapiriladi. Uning foydasi, inson hayotidagi ahamiyati haqida anchagina yozilgan. Navoiy ham «Mahbub ul qulub»ning ikkinchi qismida sabrga alohida o'rin bergan. «Sabr-achchiq, ammo foyda beruvchi, u - qattiq, ammo ziyon-zahmatni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir. Sabr - ulovdir - sekin yuradigan, ammo manzilga eltuvchidir. Sabr tuyadir-og'ir qadam, lekin bekatga olib boruvchidir. Sabr-nasihatgo'y, tabib...»



Shoir sabr haqida gapirar ekan, o'z fikrlarining dalili sifatida bir hikoyat keltiradi. Unda aytilishicha, bir yigit go'zal qizga oshiq bo'ladi. Yigit tuhmat bilan zindonga tushadi. Uni urib azoblaydilar. Gunohni bo'yniga olishni so'raydilar. U iqror bo'lmaydi. Kaltak zarbidan badani go'shtlari titilib ketadi. Atrof lolazor /qon/ bo'ladi. Majbur bo'lib uni qo'yib yuboradilar. Uning og'zida maydalangan tanga parchalari chiqadi. Odamlar buning sababini so'rganlarida, odamlar orasida o'sha qiz borligini ko'rgani, unga azob berayotganlarida tangani og'ziga solib oladi, ma'shuqasi oldida o'zini tutganini aytib beradi. Qiz uning yoniga kelib shirin so'zlar aytadi. Yigit uchun bu katta baxt edi. Navoiy bu asarida ishq haqida ham mulohazalar yuritadi. Ishqni uchga ajratib tavsiflaydi. Birinchi ishq avom ishq. Bu ishq keng tarqalgan bo'lib, uning oliy martabasi sha'riy nikohdir. Ikkinchi qism - alohida fazilat egalariga xos ishq bo'lib, bu xos ishqqa mansub shaxslar pok ko'zni pok niyat bilan yuzga soladilar va pok ko'ngil u pok yuzning shavqi-zavqi bilan beqaror bo'ladi.

Shu o'rinda yana bir hikoyat keltiriladi. Majnun va Laylining ishq, Majnunning ishq azobida jon qolmagan vujudiga Laylining xati tumor va duo o'rnini bosib Majnunni qayta hayotga qaytargani aytiladi.

Uchinchi qism - siddiqlar - haqgo'ylar ishq bo'lib, ular Haqining jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yashaydilar.

«Mahbub ul qulub»ning uchinchi qismi «Turli foydali maslahatlar va maqollar» deb nomlanadi. Har xil foydali pandlar hamda hikmatlarni o'z ichi ga oladi. Unda odam va odamiylik, chin insoniy fazilatlar to'g'risida xalq tajriba va bilimining qaymog'i sifatida yig'ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning hayoti davomida to'plangan xulosalari keltirilgandir.

Shoir o'z fikrlarini «Tanbeh» sarlavhasi ostida beradi. Nafs qoralanadi. Bir «Tanbeh»da Shunday deyiladi: «Kamtar odamlar ko'p gapirishdan qochadilar, ular ko'p eshitmoqni istaydilar va yoqtiradilar. Eshitmoq kishini boyitadi, ko'p gapirmoq sayozlatadi. Ko'p gapirgan - ko'p yanglishadi. Ko'p egan - ko'p yiqiladi. Tan kasalining asosi-ko'p emakdir, qalb kasalining sababi ko'p demakdir...»

Takaburlik, ehson foydasi, saxovat va himmat, muruvvat, vafo, hilm-muloyim tabiatlik, ilm, tilga e'tibor, yolg'onchi, nodonlar, sabr, qanoat, tama, may ichish, so'z odobi, qarilik, safar qilish foydasi va boshqalar haqida o'ziga xos tanbehlar beriladi.

Bir tanbehda shunday yoziladi: Oz gapirmoq - hikmatga sabab, oz yemoq sog'likka sabab. Og'ziga kelganini demoq-nodonning ishi va oldiga kelgani yemoq - hayvonning ishi.

Bayt: Ko'p demak birla bo'lmagil nodon,  
Ko'p Yemak birla bo'lmagil hayvon.

Navoiy xalq og'zaki ijodini yaxshi biladi. Asarlarida undan keng foydalandi. «Mahbub ul qulub»da ham xalq maqollaridan keng foydalangan. O'zi ham shu ruhda hikmatli so'zlar yaratdi. Ularning ko'pchiligi maqolga aylanib ketgan. Asardagi «Ko'p degan ko'p Yengilur, ko'p Yegan ko'p yiqilur», «Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q», «Tilga ixtiYorsiz, elga e'tiborsiz», «Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar», «o't ishi qovurmoq va el ishi sovurmoq» kabilar shular jumlasidandir.

Asarda muallif o'zigacha bo'lgan forsiy nasrning eng ilg'or an'alarini rivojlantirgan, qator masalalarni o'z davri ijtimoiy—siyosiy voqe'likni, hokim mafkura bilan bog'lab, yangicha talqin qilgan. Asardagi insonni ulug'lash, barkamol ko'rish, uning bosh xatini, hajviy portretlar, qaydlar — fosh qiluvchi qudratini, rad etishlik mantiqi — isyonkorlik ruhini, axloqiy — etikhikmat — didaktik yo'nalishini, bayondagi fikr teranligi, tilning go'zalligi, puxtalik, muxtasarlik, uslubiy jilolar, she'riy parchalarning keltirilishi — yuksak badiiyatini belgilaydi.

Muqaddimada, Navoiyning e'tirof qilishicha, bu asar zamondoshlari va avlodlarga o'rnak bo'lishi, yaxshilik va yomonlikni anglashda, go'zallikni ardoqlash va ezguliklarga intilish, chirkin xislatlar vayovuzliklardan asranishda dastur ul—amal bo'lishligini nazarda tutadi.

Odobi tasnif an'anasiga ko'ra asar Oллоh hamdi bilan boshlangan. Uning yolg'izligi, azamati, niyozmandligi, qodirligi va h. k. madh etiladi.

Muhammad payg'ambar (alayhisallom)ning madhi na't qismida beriladi. Shundan so'ng Navoiy o'zi haqida, hayoti, faoliyati qanday kechganligini nimalardan xursand, nimalardan ranjib yashagani qalamga olinadi. Asarning yozishdan ko'zlagan maqsadi va uning mundariyasi bayon etiladi. Navoiy «umid ulki, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zibilan nazar solg'aylar va har qaysi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar, bituvchiga ham bir duo bila bahra yetkurgaylar va ruhini ul duo bila suyundurg'anlar, — deb muqaddimani yakunlaydi. «Mahbub ul-qulub»ning avvalgi noshirlari davr siyosati va undagihukmron mafkura tazyiqi bilan matnni qisqartirib tayyorlagan edi. Bu nashr e'tiborli qo'lyozmalar asosida ilk bor to'liq holda nashr etilmoqda. Natijada Navoiyning tasavvufga munosabati, diniy masalalarni talqin etishdagi pozitsiyasi haqida aniq tasavvur paydo bo'ladi.

## 2.5. Asarda qoʻllanilgan sintaktik figuralar.

Asardagi nutqning taʼsirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, oʻxshatish, epitet, takror va adabiy koʻchirmalarning ham oʻrni beqiyosdir. quyidagi misollarga eʼtibor beraylik: Odam boʻl, otang kabi axmoq boʻlma – Odam boʻl otang kabi, axmoq boʻlma yoki Mulla aʼlam toʻgʻri, odam emas – Mulla aʼlam toʻgʻri, odam emas.

Bu gaplarda ohangning oʻzgarishi gap mazmunining tamomila oʻzgarib ketishiga sabab boʻlgan. Bulardan tashqari nutqda taʼsirchanlikni taʼminlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, soʻz va iboralar, ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur.

«Mahbub ul qulub»da turli badiiy vositalar, sheʼriy parchalar, kichik hikoyalar, maqol va hikmatli soʻzlar keng ishlatilgan. Asarda xalq ogʻzaki ijodiga xos sajʼ qoʻllanilgan.

### **Tanbeh (123).**

Tengri doʻstlari sidqu safo maʼdanidur. Yolgʻonchini debdurlarki, tengri dushmanidur.

Tilingni ixtiyoringda asragʻil, soʻzungni ehtiyot bila degil. Mahallida aytur soʻzni asrama, aytmas soʻz tegrasiga yoʻlama. Soʻz borkim, eshituvchi tanigʻa jon kiyurur va soʻz borkim, aytgʻuvchi boshin yelga berur. Tiling bila koʻnglungni bir tut, koʻngli va tili bir kishi aytgʻon soʻzla but. Soʻzni koʻnglungda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim koʻnglungda boʻlsa tilga surma. Agarchi tilni asramoq koʻngulga mehnatdur, ammo soʻzni sipamoq boshqa ofatdur. Aytur yerda unutm, aytmas yerda oʻzungni mutakallim tutma. Aytur soʻzni ayt, aytmas soʻzdin qayt. Oqil chindin oʻzga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas.

Masnaviy:

Xiradmand chin soʻzdin oʻzga demas,

Vale bari chin ham degulik emas.

Kishi chin soʻz desa zebo durur,

Necha muxtasar boʻlsa, avlo durur.

Алишер навоий узининг асарларида бир вақтнинг ўзида бир нечта бадий тил тасвирий воситаларидан кенг қўлланилиши билан ҳам ажралиб туради.

*Tanbeh (85).*

*Oz demak hikmatqa bois va oz yemak sihatqa bois. Og'izg'a kelganni demak nodon ishi va ollig'a kelganni yemak hayvon ishi.*

*Bayt:*

*Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,*

*Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.*

Юқорида келтирилган 85 танбехда анафора, намуналарини кўришимиз мумкин:

*Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,*

*Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.*

Бу ўринда икки мисрада ҳам мисра бошида келган “кўп” сузининг қўлланилиши анафора бадий санъат турини ҳосил қилган ва байтнинг лафзий назокати ва жозибadorлигини оширишга хизмат қилган.

Ушбу танбехдаги “*Оз демак*” ғ гапни чала ва озгина гапириш маъносида эмас, балки “Кам гапирмоқ, камгап булмоқ”; “*оз емак*” эса “нафсни тийиш” маъноларида қўлланилиб, тилнинг метонимия тасвирий воситасининг яққол намунаси дир.

“*Og'izg'a kelganni demak*” деганда эса хаёлга келган фикр ва тушунчаларни мулоҳаза қилмасдан сузлаш маъноси ётади.

Бу байтда насиҳат бериш маъноси ҳам қўлланилганлиги боис, маъвиза бадий усули ҳам қўлланилган.

40 фаслдаги куйидаги рубоийда эса Алишер Навоий ружуъ бадий санъатидан, яъни шеърятда шоирнинг олдинги мисра ёки байтда ифодалаган фикри, қўллаган бадий воситаларидан қайтгандай бўлиб, кейинги мисра ёки байтда унга қараганда кучлироқ ифода ёки фикрни тўлдириш усулидан моҳирона тарзда фойдаланганлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин:

*Yo rabki, fano qushin romim ayla,*

*Romim demayinki, saydi domim ayla.*

Ham faqr tariqida xiromim ayla,

Ham zoviyai fano maqomim ayla.

18 faslda keltilirilgan kuyidaagi mashhur baytda esa “bir harf” maъnosida butun bir taъlim va tarbiya bериш, ilm ўргатиш жараёни ётади ва бу ҳам метафоранинг яққол намунаси ҳисобланади:

Haq yo‘lida kim senga *bir harf* o‘qutmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

### III. XULOSA

Navoiy o`zbek adabiy tilini rivojlantirish, bu tilda go`zal asarlar yaratish, o`zbek tilini yuqori mavqega ko`tarish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qildi. U o`zbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga bee`tibor bo`lgan kishilarga munosib javob bera oldi. O`zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi.

Navoiy o`zi berayotgan ma`lumotlarning aniq, to`g`ri bo`lishiga ham e`tibor berdi.

Nutq madaniyatining asl mohiyati Navoiy asarlarida o`zining yorqin dalilini topdi desam, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Ulug` shoirlarimizning, qolaversa o`tmishda o`tgan ko`plab buyuk zotlarimizning merosi bugungi kunda chuqur e`tibor bilan o`rganilayotgani ham bejiz emas. Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, nutq va suhbatlarida bobokolonlarimiz yaratgan merosning bugungi kundagi o`rni va ahamiyati qayta-qayta ta`kidlanmoqda. Yosh avlodni kamol toptirishda ularning o`rni aniq qayd etilmoqda. Bu jihatdan hazrat Navoiyning, u kishidan bizgacha yetib kelgan ulkan adabiy yodgorliklarining ham salmog`i yuksakdir.

O`zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy turkiy tilda go`zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o`zbek tili boyligini namoyon etuvchi mashhur asarlar yaratdi. Navoiyning sa`y-harakatlari tufayli XV asrda o`zbek tili olamga dong`i ketadigan adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanligini isbotladi.

Navoiy o`z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. Navoiy tilni o`tib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o`zaro aloqada bo`ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblayd

i. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug`ma ekanligini ta`kidlaydi. "Muhokamatul-lug`atayn" asarida arab tili "*kalomi ilohiy*" deb ulug`lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lug`at boyligi, so`z yasalishi, fonetik tarkibi, stilistikasi kabi xususiyatlarini chog`ishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilida qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti bo`lmagan o`zbekcha so`zlarni misol keltiradi. "Muhokamatul lug`atayn" asari bevosita tilshunoslining nazariy muammolarini hal qilishga, o`zbek tilining boshqa tillar orasida tutgan o`rnini belgilab berishga, o`zbek nutqi madaniyatini o`rganishga qaratilgan. Mutafakkir asarlarida o`zbek tilining leksik boyliglaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq ta`biri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalandi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgandan so`ng buyuk shoirimizga yana ham bo`lakcha hurmat va ehtirom ko`rsatilmoqda.

Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan



mustahkam o`rin oldi. Mustaqil O`zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O`zbekiston Davlat mukofoti, O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti, opera va balet

akademik teatri, O`zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi. Alisher Navoiy o'zbek tili asoschisi va davlat arbobi buyuk mutafakkir olim sifatida barcha turk elatlar yodida asrlar davomida saqlanajak!

## **IV. ADABIYOTLAR**

- 1. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”**
- 2. Rasulov R., Mo’ydinov Q. Nutq madaniyati. T., 2004-yil.**
- 3. E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo’lishi va asoslanishi Nutq madaniyatiga oid masalalar. -T., Fan, 1971-yil.**
- 4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., O’qituvchi, 1991-yil**
- 5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)**
- 6. [www.adabiyotuz.uz](http://www.adabiyotuz.uz)**
- 7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)**



